



“MAKTABGACHA TA'LIM: KECHA, BUGUN VA ERTAGA” MAVZUSIDAGI

**Respublika ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari
(2021 yil 21 may)**

III

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



**A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**"MAKTABGACHA TA'LIM: KECHA, BUGUN VA ERTAGA"
MAVZUSIDAGI**

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
II QISM
(2021 yil 21 may)**

KBK: 74.14

UO'K: 37.1 (054) =00

E-59

“Maktabgacha ta’lim: kecha, bugun va ertaga” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2-qism). Jizzax, 2021. – 276 bet.

Mas’ul muharrir:

Meliyev Xamidulla Abdullayevich – pedagogika fan. nom., professor

Tahrir hay’ati:

M.S.Usmanova, X.Raxmonqulova, M.Norqo`ziyeva, Sh.Buranova

Taqrizchilar:

Kushvaktov Ne’mat Xusanovich - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Meliboyev Anvar Rashidovich - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Kushakova Gulnora Egamkulovna – p.fff.d. (PhD), v/b.dotsent

Texnik sahifalovchi:

Ergasheva Kamola Orifovna

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, hozirda e’tirof etilayotgan maktabgacha ta’lim tizimining eng zamonaviy metodlarini amaliyotga tadbiq etilishiga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, to‘plamda maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan islohatlar, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga va maktabgacha ta’lim yo`nalishida tahsil olayotgan talabalarga ta’lim berishga zamonaviy yondashuv, xorijiy tajribalar masalalari, maktabgacha ta’limda bolalarni ijtimoy-hissiy, jismoniy rivojlantirish va sog`lom turmush tarzini shakllantirish vositalari, tarbiyalanuvchilarda nutq, muloqot, o`qish va yozish ko`nikmalarini shakllantirish metodlari va ijodkorlikni rivojlantirish, mahalla, oila va MTT hamkorligida bolalarni maktabga tayyorlash, oliy ta’limda bo`lajak pedagog-tarbiyachilarni tayyorlashga kreativ yondashuvkabi yirik masalalarni ijobiy hal etishning nazariy jihatlariga keng o‘rin berilgan.

To‘plam talabalar, magistrler, tayanch doktorantlar va barcha o‘quvchilar ommasi uchun mo‘ljallangan.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2 martdagি 78-F сонли farmoyishiga asosan nashrga tavsiya etilgan

Ma’ruzalar materiallarida yoritilgan tarixiy jarayonlar, ma’lumotlar va chiqarilgan xulosalarining haqqoniyligiga mualliflar javobgar.

3. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. Олий таълим муассасалари учун дарслик. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти-2009 й.

4. Xaydarova Shaxlo Narzullaevna, (2021). Pedagogical Approach To The Preparation The Children Of The Orphanage For Family Life. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(02), 23-27.

5. Хайдарова Шахло Нарзуллаевна. Навоийский государственный педагогический институт, Узбекистан Педагогический подход к подготовке воспитанников детского дома к семейной жизни

TARBIYACHILAR MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

**G.Kushakova, dots.v/b JDPI
M.Sarimsoqova 1-kurs magistr talabasi**

Zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi - yosh avlodni axborot jamiyatida hayotga tayyorlashdir, ya’ni turli xil ma’lumotlarni idrok etish, insonga uning ta’siri oqibatlarini anglash va tushunish, axborot va telekommunikasion texnologiyalar yordamida og’zaki bo’lmagan aloqa shakllariga asoslangan aloqa usullarini o’zlashtirish va boshqalar. Shunday qilib, mavjud media dunyosida bemalol yo’nalib bila oladigan mustaqil, ijodkor shaxsni o’qitish va tarbiyalash usullaridan biri media dunyosi zamonaviy axborot vositalarini o’quv jarayoniga maqsadli, puxta kiritishdir.

Zamonaviy media atrofdagi dunyoni insoniy o’zlashtirishning murakkab vositasi bo’lib, elektron medianing multimedya, interaktivlik, modellashtirish, aloqaviylik va samaradorlik kabi o’ziga xos xususiyatlari medianing yangi ta’lim funksiyalari haqida gapirishga imkon beradi va shu asosda ta’lim media-mahsulotlarini, ta’limning axborot texnologiyalarini ishlab chiqadi. Media ta’lim-

tarbiya jarayonining mazmuni va uslubiga tubdan o'zgarishlar kiritadi, maktabgacha ta'lif tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilar tomonidan o'z faoliyatini aks ettirishga, uni mustaqil tartibga solishga yo'naltirilgan pedagogik muammolarni yechishga imkon beradi. Medianing o'ziga xos xususiyatlarini tushunish va hisobga olish zamonaviy tarbiyachiga o'z pedagogik faoliyatini axborot olamidagi zamonaviy o'zgarishlarga mos ravishda, zamonaviy maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyalanuvchisining yangi axborot ehtiyojlari bilan, turli muammolarni hal qilish jarayonini aniq va to'g'ri tashkil etish, o'z kasbiy malakasini oshirish jarayonida mediadan mohirona foydalanish imkonini beradi.

Biroq, ushbu muammoni hal qilish faqat media sohasida ma'lum bilim, ko'nikma va qobiliyatlarga ega bo'lgan, ya'ni mediakompetentli bo'lgan tarbiyachilar bilangina amalga oshiriladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiyachining mediakompetentligi uning kasbiy kompetentligining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki nafaqat maxsus bilimlarga ega bo'lgan, balki belgilangan yo'nalish doirasida faoliyatni amalga oshirishning barcha usullaridan pedagogik faoliyatni amalga oshirishi va axborot hamda telekommunikasiya texnologiyalarini organik ravishda rivojlantirishda o'z ko'nikmalarini takomillashtirishi kerak.

Mediata'lif tarbiyachilarga mediamadaniyat olamida moslashishga, ommaviy axborot vositalari tilini o'zlashtirishga, mediamatnni tahlil qila olishga va shu kabilarga yordam berishi lozim.

Pedagogika fanida tarqalgan asosiy mediata'lif modellari ko'p jihatlarga egadir. Umuman olganda, ularni quyidagicha tartibda tasniflash mumkin bo'ladi:

o'z ichiga media nazariyasi va amaliyotining o'rganilishini oladigan ta'limiy-axborotli modellar;

mediamadniyatning axloqiy va falsafiy muammolarini ko'rib chiqadigan tarbiyaviy-estetik modellar;

o'quvchilar va tarbiyachilarning ijodkorligi, tasavvuri, mustaqil fikrlashi va shu kabilarning rivojlantirilishini ko'zda tutadigan rivojlantiruvchi o'qitish modellari

Milliy mediata'lim modellarining o'ziga xosligi shundan iboratki, bunda ular umumdidaktik tamoyillarga (shaxsning har tomonlama rivojlanishi, nazariyaning amaliyot bilan aloqadorligi, tizimlilik va shu kabilar) va mediamadniyatning o'ziga xosliklari bilan bog'liq bo'ladigan tamoyillarga (audio-vizual anglashning, mediamatnlarni tahlil qila olish mahoratining va shu kabilarning rivojlanishiga) rioya qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni axborot texnologiyalari asosiga qurilmaydi. Olimlar bunga shunday tushuntirish beradilar:

- minimal yetarlilik tamoyili ishga tushib ketadi (axborot texnologiyalaridan foydalanish – bu usiz ham o'qish mumkin bo'ladigan, faqat qo'shimcha imkoniyatdir);

- o'z materiallari va ishlanmalarining ahamiyatini ortiqcha baholab yuborish;

- ish joylari jihozlanishidagi turli xil darajalar [2, 67-74-b].

Turli xildagi ixtisoslashtirilgan o'quv fanlarida mediakompetentlilik haqidagi diskurs ko'p yillar davomida, hatto o'n yillar mobaynida bir-biriga bog'liq bo'limgan holda kiritib kelindi. Mazkur tushuncha nafaqat mediata'lim tushunchasi bo'lib, balki mediaviy hamjamiyatdagi ma'lum bir funksiyalarga ega bo'ladigan ijtimoiy qurilma, baholash tizimi bo'lib hisoblanadi, ular esa mass-

media tomonidan translyasiyalanadi. Har xil ilmiy diskurslarda mediakompetentlilik tushunchasi har xildagi to’ldiriluvchanlikka egadir.

Masalan, iqtisodiyot sohasida mediakompetentlilik ishlab chiqarish omili sifatida ta’riflanadi, mediaviy huquq sohasida esa bolalar va iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish kontekstidagi omil, siyosatda esa demokratik kompetensiyaning ko’rsatkichi tarzida talqin qilinadi.

Agarda XX asrning 90-yillarida mediakompetentlilikni, mediamatnlarning texnikasini, mazmunini, tushunishni va so’zning keng ma’nosida matnni tushunish foydasiga mediapedagogikani targ’ib qiluvchi ovozlar yangragan bo’lsa, endilikda yangi ming yillik boshlarida bu bosqichma-bosqich tizimga kela boshladi.

Zamonaviy adabiyotlarda texnika bizning ixtiyorimizda bo’ladi, shuning uchun bizlar odam sifatida *kommunikativ kompetensiyaga* ega bo’lamiz. Ya’ni, odamlar nafaqat, masalan, tasvirni rasshifrovkalay olishlari, ular balki yana nimalarnidir “man a shunga bog’liq holda o’ylab ko’rishlari” mumkin va bu tushunish jarayonlarin belgilab beradi - kompetensiya aynan mana shuni ko’zda tutadi. Bu yerda gap nafaqat yangi texnikani o’zlashtirish haqida boradi; mazkur texnik-amaliy ko’nikmalar kishilaring biron narsa ustida fikr yuritishlari, tanqidiy dalillarni shakllantirishlari va o’qish yordamida lazzat olishga qobillikka erishish bilan bog’liq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babadjonov S.S. Multimedia texnologiyalari. – T.: Elektron Ta’lim Resursi, 2017.

2. Nikitina Ye.Yu., Milyutina A.A. Formirovaniye mediakompetensii mladshix shkolnikov na urokax russkogo yazyika. Monografiya. – M., 2015 yil

3. Inoyatov U.I. Xalq ta’limi tizimida mediata’limni tashkil etish va rivojlantirish. Globallashuv sharoitida yoshlarni mediasavodxonligini oshirish. Respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. (Birinchi kitob) Namangan, 2015. 5-7 b.

va shu kabilarning bajarilshi darajasi hisobga olish kerak. Bolalarning hamkorligikdagi faoliyati uchun uyusha olish ko'nikmalarini rejalashtirishda alohida hisobga olinsa, haqiqiy va asosli bo'ladi".

Rejaning asosligida joriy ijtioiy hodisalar, katta yoshlilar mehnati va turmushning xususiyati, tabiiy atrof-muhit va tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarning hisobga olinishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyevning SH.M. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 30 sentyabr

Internet saytlar

3. <http://www.tsic.uz>

4. <http://www.usia.uz>

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY URF – ODATLAR VA ANANALAR ASOSIDA MEHR – SHAFQAT HISLARINI TARBIYALASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.

**G.Kushakova JDPI dots v/b.
E.Ro'zmonov JDPI talabasi**

Respublikamizda Prezident Sh.M. Mirziyoyevning "Maktabgacha ta'lim sohasi uzlucksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi" – degan fikrlari asosida tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikasiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash